

**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA,  
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARUV  
TUSHUNCHALRINI RIVOJLANTIRISH.**

---

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI  
ORIENTAL UNIVERSITETI  
TA'LIM MENEJMENTI YO'NALISHI MAGISTRANTI:  
NURMATOVA DILDORA MIRXAMITOVNA*

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tizimidagi islohotlar, muammolar va yechimlar haqida tushuncha berilgan. Shu bilan birgalikda Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabalarida maktabgacha ta'lism tashkilotini boshqarish tushunchalarini rivojlanirish, talabalarda maktabgacha ta'lismni zamonaviy boshqaruvni nazariy tomonlarini o'rghanish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda talabalarda zamonaviy maktabgacha ta'lism tashkilotni ta'lism va tarbiyani boshqarishning zamonaviy tizimi va uni boshqarishning asosiy tamoyillari, maktabgacha ta'lismni boshqarishning maqsadi, maktabgacha ta'lism va tarbiyani boshqarish usullari, shakllari, tamoyillari, qonuniyatları shuningdek, turli tipdagi maktabgacha ta'lism tashkilotlarini tashkil etishning prinsiplari va unga ilmiy-nazariy yondashuvi asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat bo'lgan bugungi kun vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv, rahbar, maqsad, tuzulma, qadriyat, talablar, ta'lism

**Аннотация.**

Это статья дает представление о реформах, проблемах и решениях в системе дошкольного образования. Дошкольное образование — это основная часть непрерывного обучения. Разработка концепции управления организацией дошкольного образования у дошкольников, формирование знаний, умений и компетенций учащихся в методах изучения теоретических и практических аспектов развития современной системы управления организацией образования и дошкольного образования. Воспитания и основные принципы его управления, цели управления дошкольным образованием, методы, формы, принципы, закономерности управления дошкольным образованием и воспитанием, а также принципы организации различных типов организаций дошкольного образования и их задачи. Учить делать выводы на основе научно-теоретического подхода.

**Ключевые слова:** менеджмент, лидер, цель, структура, ценность, требования, образование.

Hozirgi vaqtida oliy ta'limni qayta qurish, uni ishlab chiqarish bilan yanada ko‘proq yaqinlashtirish ishlari olib borilayotgan bir sharoitda fan va nazariyaga asoslangan bilimga, amaliy malakalarga ega bo‘lgan va yangi zamonaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila borishga layoqatli mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ta’lim sohasidagi siyosatida oliy va o‘rta maxsus muassasalarda mutaxassislar tayyorlash mazmunini xalqimizning uzoq muddatli ehtiyojlari bilan, Respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish vazifalari bilan muvofiq holga keltirishni ta’limning xilma-xil shakllari va usullari yordamida yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun sharoit yaratishni dolzarb vazifalardan biri deb hisoblanmoqda. Talabalarning Maktabgacha ta’limda boshqaruv va menejment faniga oid bilimlarini o‘zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishslash ko‘nikmasi tufayli talabalar Maktabgacha ta’limda boshqaruv va menejmentdan mukammal bilim olishlari yaratilib berilmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim tashkiloti mudiralariga tobora ko‘proq talablarni qo‘ymoqda, lekin boshqaruvdek muhim sohada menejrlik mahorati eng kuchli talab hisoblanmoqda. Ta’lim darajasini oshirish asosan ta’lim tashkiloti rahbarining ta’lim sifatini rivojlantirishdan manfaatdorligi, vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini his etishi va kerakli vaqtida boshqaruv faoliyatiga o‘zgartirish kiritishi bilan bog‘liq. Ta’lim tashkilotining yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga yo‘naltirilganligi boshqaruvning tegishli darajasiga qo‘yiluvchi bir qator talablarni ifodalaydi. Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishda yangi yondashuvlarga asoslanib, zamonaviy boshqaruvga layoqatli mutaxassis fazilatlariga ega bo‘lishi bilan birga, yuqori professional muloqot madaniyati va axloqiy-etik me’yorlarga ega bo‘lishi kerak. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida turli xil maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjudligi, takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar va usullar yuzaga kelib, amalda qo‘llanilmoqda, innovatsion faoliyat ommalashmoqda. Asosan bugungi kun bitiruvchilari maktabgacha ta’limning yo‘nalish talablari o‘zgartirilmoqda. Aynan shuning uchun ta’lim muammolarini zamonaviy darajada hal eta oluvchi yangi avlod direktori zarur. Yangi turdagи menejr direktorlari jamoa bilan ishslashda tabaqlashtirilgan yondashuvni amalga oshirishi, ularning qobiliyatları, shuningdek ehtiyojlari va kasbiy talablarini hisobga olishi kerakligi muhim o’rin tutadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mudirasi uchun xodimlarning tashabbusini ma’qullah, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘sish, shuningdek, har bir xodimini harakatga unday olishi muhimligi. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik ta’sir ko‘rsatish uslublariga ega, bundan tashqari boshqaruv mahoratini biluvchi mutaxassis bugungi zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlariga zarurligi. Boshqaruv tizimi ochiq murakkab tizim hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jamoani boshqarish ilmiy asosida o‘rganiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda boshqa sohalari bilan uzviy bog‘likda,

o‘zi to‘plagan ma’lumotlarni chuqur va ilmiy jihatdan oqilona tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqaruv ilmining mazmun va mohiyati xodimlarni yoki jamoa mehnat faoliyatini boshqarish bilan ham bog‘ligini tushiish Jamoa yiriklashgan sari boshqaruvning vazifalari murakkablashib borishini anglash, talabalarda boshqaruvchanglik, menejrlik ko’nikmalarini shakillantirish tadqiqotning asosiy o’rganish vositsi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish jamiyatning boshqa sohalarini boshqarishga qaraganda juda murakkab va ko’p qirralidir. Buning boisi shuki, bu sohada eng qimmatli hisoblangan inson shaxsi - insonni o‘zi shakllanadi. Inson ta’lim - tarbiyasida yo’l qo’yilgan xato jamiyat uchun juda ko’p iqtisodiy, axloqiy va ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha ta’lim tashkilot direktorining boshqaruv madaniyati takomillashtirishning konseptual masalalari bo‘yicha Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Abu ali Ibn Sino va boshqa mutaffakur allomalar hamda MDH olimlaridan N.V.Vasina, A.A.Verbiskiy, V.Yu.Krichevskiy, Ye.I.Isaev, I.Zimnyaya, S.A.Yezopova, Ye.Kudryavseva, D.A.Novikova, V.Slastenin, xorijiy olimlardan M.Schnitger, G.Yukl, E.S.Simbirsk, Yu.B.Suvorova, E.Rogers, A.Maslow, W.Hutmacher, F.Herzberg, M.Glozier, D.Bartramlar tomonidan o‘rganilgan. O’rganish natijalarida nazariy va amaliy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va uni ilmiy asoslash hamda maxsus tadqiq etish zaruratining saqlanib qolayotganligi, bu yo‘nalishda chuqur ilmiy-amaliy yondashuvlar, yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga kelganligi tadqiqot mavzusini dolzarbligini belgilaydi. Bugungi kunda xalqaro ilg‘or tajribalarga asosan, Angliya, AQSh, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlarning maktabgacha ta’lim tizimida malaka oshirish jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalashni amalga oshirishning ilmiy asoslangan metodik tizimini yaratish borasida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Shunga ko‘ra, raqobatbardosh, malakali, tashabbuskor va liderlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarini malaka oshirish tizimida egallagan nazariy bilimlarini boshqaruv amaliyotida qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta’lim mutaxassislarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda hamda ularda rahbarlikning o‘ziga xos jihatlarini rivojlantirish uchun boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha ustuvor vazifalar qo‘yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtida uchta yirik hujjat;

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi —Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari jumladan, to‘g‘risida||gi PQ-3261-sonli Qarori,

2. 30 sentyabrdagi —Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari||gi PF-5198-sonli Farmoni hamda

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi –faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida||gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 – yil 29 – dekabrdagi —2017 – 2021 – yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidal qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi. Mazkur qaror maktabgacha ta‘lim tizimini moddiy - texnik bazasini mustahkamlash ularni malakali pedagogik kardlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalar tadbiq etishni ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi yo‘nalishlar belgilangan. Bu o‘z navbatida, maktabgacha ta‘lim tizimining integrallashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, mutaxassislarni malaka oshirish jarayonida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bilan hududiy hamda xorijiy maktabgacha ta‘lim malaka oshirish tashkilotlari o‘rtasida uzlusiz hamkorlikni kuchaytirishni ustuvor prinsiplar asosida ishlab chiqishni taqozo qiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonini modellashtirish uchun asos sifatida maqsadga yo‘naltirilganlik, dinamik xususiyatlar, asoslantiruvchi, tashkiliy-uslubiy faoliyat yoritib berildi. Malaka oshirish kurslarining o‘quv jarayonida umumiy tayyorgarlik fanlari mazmunini boyitish, rahbarlarning boshqaruv faoliyatidagi dunyoqarashini kengaytirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotining rahbariga boshqaruv faoliyati mazmuni va uni o‘zlashtirish shakllari hamda usullarini amalga oshirishda zarur shartsharoit yaratadi. Yuqorida ko‘rib chiqib shuni aytish mumkinki mustaqil ta‘lim, bitiruv loyiha ishlarida rahbarlarni umumkasbiy tayyorgarligini takomillashtirish asosida boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta‘lim texnologiyalari va metodikalarni qo‘llash uslublari ko‘rsatib borilishi ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Mustaqil ravishda rahbarlarning boshqaruv faoliyati hamda ishlab chiqarish jarayonida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi har bir rahbarning kasbiy rivojiga sabab bo‘ladi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv faoliyati deganda maktabgacha ta'limni takomillashtirishga va rahbar shaxsini ijodiy o‘z-o‘zini anglashga qaratilgan tashkiliy, loyihalash, baholash, muvofiqlashtirish va boshqarish funksiyalarida namoyon bo‘ladigan ta’lim sub’ektlari faoliyatini tizimli va ijodiy tartibga solish jarayoni tushuniladi. Boshqaruv faoliyatiga doir masalalar xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida o‘rganib chiqildi. Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti o‘zaro hurmat, hamkorlik, ishonch, javobgarlik, kompetentlik, teskari aloqalar, o‘zini-o‘zi takomillashtirish tamoyillarida to‘liq aks etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining kompetentli rahbari nafaqat boshqaruv faoliyatga tayyor bo‘lgan shaxs, balki jamoada ishlay oladigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, tashabbus ko‘rsatadigan, innovatsion makonda ishlay oladigan, malakali menejer bo‘lishi lozim. Shu munosabat bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlari uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik menejment, nazariy va amaliy faoliyat sohalarida maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish juda muhim hisoblanadi. Shu borada Oliy ta’lim bituruvchilarinnig nazariy bilimlarini amaliyotda ko‘rsata bilishi uning mahoratliy izlanuvchang rahbar sifatida foliyati davomida namoyon etiladi. Liderlik mahoratiga ega bo‘lgan har qanday talaba o‘zining boshqaruv bilimlarini har qanday tashkilotda ko‘rsata oladi.

## ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V., Tolstikova Yu.V. Maktabgacha ta’lim ta’lim. Terminlar lug‘ati; Ayris-press, 2005y 400 b. - Maktabgacha ta’lim va rivojlanish.
2. Nikolay Xromov Upravleniye detskim sadom. Pressa Rossiya 2014g Gord Moskva.
3. Troyan A.N. Maktabgacha ta’limni boshqarish: darslik. Sfera TC, 2005. 160 bet (Qo‘llanma)
4. Fotima Qodirova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi Toshkent 2019 yil
5. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr.